

**GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA XALQARO BAHOLASH TIZIMI
TAJRIBASINI QO'LLASH (ANTARKTIDA MATERIGINING O'SIMLIK
VA HAYVONOT DUNYOSI MAVZUSI MISOLIDA)**

Axmedova Nodira Shuxratovna

293-maktab geografiya fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6508298>

Annotatsiya: Ushbu maqola geografiya darslarida o'quvchilar bilimini xalqaro baholash tizimi asosida PISA testlaridan foydalanishga bag'ishlanadi. Geografiya fanini o'qitishda ta'limni takomillashtirish va samaradorligini oshirish bo'yicha xalqaro baholash tizimiga o'tish, o'quvchilarning mantiqiy fitkrlashlarini oshiradi, dunyoqarashini kengaytiradi, fanlararo bog'lanish uzviy yuza keladi, va o'quvchilarning bilimi bir mavzuda bir necha fandan bilim salohiyati oshadi. Bunda Antarktida materigining o'simlik va hayvonot dunyosi mavzusi misolida bayon etilmoqda.

Kalit so'zlar: PISA, TIMSS, Antarktida matirigi, geografiya fani, ilg'or xorijiy tajribalar.

**ПРИМЕНЕНИЕ ОПЫТА МЕЖДУНАРОДНОЙ СИСТЕМЫ ОЦЕНКИ В
ПРЕПОДАВАНИИ ГЕОГРАФИИ (НА ПРИМЕРЕ РАСТИТЕЛЬНОГО И
ЖИВОТНОГО МИРА КОНТИНЕНТА В АНТАРКТИДЕ)**

Аннотация: Данная статья посвящена использованию тестов PISA на основе Международной системы оценки учащихся на уроках географии. Переход на международную систему оценивания для совершенствования и повышения эффективности преподавания географии повысит логическое мышление учащихся, расширит их кругозор, будут интегрированы межпредметные связи, знания учащихся будут более чем по одному предмету одновременно, повышается познавательный потенциал. Это показано на примере темы флоры и фауны материка Антарктида.

Ключевые слова: PISA, TIMSS, Антарктида, география, передовой зарубежный опыт.

APPLICATION OF THE EXPERIENCE OF THE INTERNATIONAL ASSESSMENT SYSTEM IN TEACHING GEOGRAPHY (ON THE EXAMPLE OF THE PLANT AND ANIMAL WORLD OF THE CONTINENT IN ANTARCTICA)

Abstract: This article focuses on the use of PISA tests based on the International Student Assessment System in geography lessons. The transition to an international assessment system to improve and enhance the effectiveness of teaching geography will increase students' logical thinking, broaden their horizons, interdisciplinary connections will be integrated, and students' knowledge will be more than one subject at a time. cognitive potential increases. This is illustrated by the example of the subject of flora and fauna of the continent of Antarctica.

Keywords: PISA, TIMSS, Antarctica, geography, advanced foreign experience.

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lidan shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarni ijodiy g'oyalarini va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nima va malakalarini shakllantirish hamda milliy istiqlol g'oyalarini o'quvchilar ongiga singdirishda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimini qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora- tadbirlari to'g'risida "2018 yil 8 dekabrdagi 997-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro

tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. Shu bilan birga ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish vazifalari belgilandi.

PISA-15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonligi darajasini baholash.

TIMSS-4 va 8 sinf o'quvchilarining tabiiy-ilmiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonligini baholash.

Shunday ekan, umumta'lim maktablarida o'quvchilarning matematik, tabiiy-ilmiy fanlar va o'qish savodxonligini oshirishda PISA testlaridan unumli foydalanish tavsiya etilmoqda. Tabiiy fanlar turkumiga kiruvchi geografiya fanini o'qitishda ham xalqaro baholash tizimidan foydalanish o'quvchilarni shu fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishi, dunyo qarashini kengaytirishi, mantiqiy fikrlashni oshirishi, o'rganilayotgan obyektlarni tez farqlay olishda amaliy yordam beradi.

Geografik savodxonlikni baholash bo'yicha "Antarktida matirigining o'simlik va hayvonot dunyosi" mavzusi bo'yicha topshiriqlar.

Pingvinlar.

Hayvonlarni suratga olish bilan shug'ullanadigan fotosuratkash Valiyev Asilbek Antarktida materigiga bir yillik ekspeditsiyaga bordi va u yerda bir necha pingvinlar hamda ularning poloponlarini suratga oldi. Ayniqsa, u turli xil pingvinlar to'dasini kattalashib borishiga qiziqib qoldi.

1-savol: Odatda, pingvin juftligi yiliga 2 ta tuxum qo'yadi. Mazkur ikkala tuxumning hajmi kattarog'idan yorib chiqqan polopon, odatda yashab qoladi. Kokildor pingvinlarning birinchi tuxumi taxminan 78 g, ikkinchisi esa taxminan 110 g tosh bosadi. Ikkinchchi tuxum birinchisidan necha foizga og'irroq?

- A) 29 %
- B) 32 %
- C) 41 %
- D) 71 %

Javob: 32 %

2-savol: Asilbek bir necha yil o'tib, pingvinlar to'dasining o'lchami qanchaga kattalashishi mumkinligiga qiziqmoqda. Buni aniqlash maqsadida, u quyidagicha farazlarni ilgari suradi.

- Yil boshida , pingvinlar to'dasi 10000 tadan iborat bo'ladi. (5000 ta juftlik)
- Har bir pingvin juftligi har yili bahorda bittadan poloponni katta qiladi.
- yil oxiriga kelib, barcha pingvin poloponlarining 20 % o'ladi.

Birinchi yilning oxiriga kelib, (yosh va katta pingvinlar bilan hisoblaganda) to'dada qancha pingvin bo'ladi?

Javob: Birinchi yilning oxiriga kelib, yosh va katta pingvinlar bilan hisoblaganda to'dada pingvinlar soni 14000 tani tashkil etadi.


3-savol: Asilbek pingvinlar to'dasini quyidagi tarzda kattalashdi deb taxmin qiladi.

- Har yilning boshlanishida to'da juftlik hosil qilgan teng sonli erkak va urg'ochi pingvinlardan iborat bo'ladi.
- Har yilning bahorida har bir pingvinlar juftligi bittadan polopon katta qiladi.
- Har yilning oxiriga kelib yosh va katta pingvinlar bilan hisoblaganda barcha pingvinlarning 20 % o'ladi.
- Bir yoshga to'lgan pingvinlar ham polopon katta qiladi.

Yuqorida ilgari surilgan farazlardan kelib chiqib aytingchi, 7 yildan so'ng pingvinlarning umumiyligi soni P, qancha bo'lismeni aniqlab beradigan formula qaysi?

- A) $P=10000 \times (1,5 \times 0,2)^7$
- B) $P=10000 \times (1,5 \times 0,8)^7$
- C) $P=10000 \times (1,2 \times 0,2)^7$
- D) $P=10000 \times (1,2 \times 0,8)^7$

4-savol: Ekspidirsiyadan qaytgach, Asilbek internet orqali bittadan pingvin juftligi o'rtacha nechta polopon katta qilishini bilmoqchi bo'ldi. U uch turdag'i, Gentu, Kokilli va Magellan pingvinlar haqida ma'lumot beradigan quyidagi gistogrammani topdi.



Pingvinlar juftligi katta qilgan poloponlar sonining o'rtacha qiymati

Yuqoridagu grafikka qarab, mazkur uchala pingvin turlari haqida aytilgan tasdiqlat to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini ayting?

Har bir mulohaza uchun "To'g'ri" yoki "Noto'g'ri" ishorasini tanglang.

Tasdiqlar	Bildirilgan tasdiq to'g'rimi yoki noto'g'rimi
2000 yilda, har bir pingvin jufti katta qilgan poloponlarning o'rtacha miqdori 0,6 dan kattaroq edi	To'g'r i/ Noto'g'ri
2016 yilda pingvinlar juftliklarining o'rtacha 80 % dan kamrog'i polopon o'stirgan.	To'g'r i/ Noto'g'ri
Taxminan 2035 yilga kelib, bu uchala pingvin turlari yo'qolib ketadi.	To'g'r i/ Noto'g'ri
2010 va 2014 yillarda pingvin juftliklari o'stirgan Magellan paloponlarining o'rtacha miqdori kamayadi.	To'g'r i/ Noto'g'ri

Shu kabi testlar o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish bilan bir qatorda "Fan to'garaklarga" jalb etib, bo'sh vaqtlarini mazmunli va samarali o'tkazishiga xizmat qiladi, o'quvchilarning mantiqiy fikrlashlarini shakllantiradi,

dunyoqarashini kengaytiradi, birgina geografiya fanidan emas balki matematika, biologiya fanlaridan ham bilim salohiyati oshib borishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” 2019-yil 29 –apreldagi PR-5712-sonli farmoni.
2. A.B.Radjiyev, A.A.Ismailov, J.R.Narziyev, X.P.Axmedov, G.O.Tog'ayeva, O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi, qo'llanma, Toshkent,2019-yil, 62 bet.
3. Kreativ fikrlashni baholash. “Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi”, Toshkent-2021 yil
4. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot tahkilot, www.oecd.org/edu/pisa.
5. 6-sinf Geografiya darsligi A. Soatov, A. Abdulqosimov, M.Mirkamalov, 2017 yil. Toshkent.
6. 6-sinf Materiklar va okeanlar geografiyasi atlasi. 2021 yil, Toshkent.